

**TOSHKENT VILOYATIDA YAYLOV CHORVACHILIGINING RIVOJLANISH
XUSUSIYATLARI**

Xalmirzaev Axmadjan Axunovich – *география фанлари номзоди*

ahmadjon59@mail.ru

Kuvondikov Rustam Abdurasul o'g'li – *katta o'qituvchi*

kuvondikovrustam764@gmail.com

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

**ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПАСТБИЩНОГО ЖИВОТНОВОДСТВА
В ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ**

Халмирзаев Ахмаджан Ахуневич – *кандидат географических наук*

Кувондииков Рустам Абдурасул угли – *старший преподаватель*

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

**FEATURES OF PASTURE LIVESTOCK DEVELOPMENT
IN THE TASHKENT REGION**

Xalmirzaev Axmadjan Axunovich – *Candidate of Geographical Sciences*

Kuvondikov Rustam Abdurasul o'g'li – *Senior Lecturer*

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Tayanch so'zlar: yaylov chorvachiligi, yaylov resurslari, pichanzorlar fondi, chorva yuklamasi, yaylov unumdorligi, yaylov ekotizimi, o'simlik qoplami.

Резюме. Maqolada Toshkent viloyatida yaylov chorvachiligi rivojlanishining hududiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yaylov va pichanzorlar fondi, chorva soni hamda o'simlik qoplami holati o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Natijada yaylov resurslaridan foydalanish darajasi, chorva bosimining yaylov unumdorligiga ta'siri hamda chorvachilikni samarali rivojlantirish yo'nalishlari yoritib beriladi.

Ключевые слова: пастбищное животноводство, пастбищные ресурсы, сенокосные угодья, нагрузка скота, продуктивность пастбищ, пастбищные экосистемы, растительный покров.

Резюме. В статье анализируются территориальные особенности развития пастбищного животноводства в Ташкентской области. В исследовании рассматривается взаимосвязь между фондом пастбищ и сенокосов, численностью скота и состоянием растительного покрова. В результате освещаются уровень использования пастбищных ресурсов, влияние нагрузки скота на продуктивность пастбищ и направления эффективного развития животноводства.

Key words: pasture livestock farming, pasture resources, hayfield resources, livestock pressure, pasture productivity, pasture ecosystems, vegetation cover.

Summary. The article analyzes the territorial features of pasture livestock development in the Tashkent region. The study examines the relationship between pasture and hayfield resources, livestock numbers, and the condition of vegetation cover. The results highlight the level of pasture resource use, the impact of livestock pressure on pasture productivity, and the directions for the efficient development of livestock farming.

Kirish. Yaylov chorvachiligi Toshkent viloyati agrar iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq aholisi bandligini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq yaylov resurslaridan samarasiz foydalanish va ortiqcha chorva yuklamasi o'simlik qoplamasining siyraklashuvi hamda yaylov mahsuldorligining 40-50 % gacha pasayishiga olib kelmoqda [1, 4, 5]. Ayniqsa aholi punktlari atrofidagi yaylovlarda degradatsiya jarayonlari kuchayib, tuproq zichlashuvi va bioxilma-xillikning kamayishi kuzatilmoqda [5].

Global iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik sharoitida yaylov resurslarini ilmiy asosda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar rotatsion yaylov tizimi o'simlik qoplamasini saqlash va tuproq degradatsiyasini kamaytirishda samarali ekanini ko'rsatadi [2, 6]. Shu bois yaylov resurslarini monitoring qilish va chorva yuklamasini me'yorlash chorvachilik samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi [1, 2, 3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yaylov chorvachiligi va yaylov resurslaridan foydalanish masalalari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Tadqiqotlarda yaylovlardan oqilona foydalanish

chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash va mahsuldorlikni oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlanadi [1]. Yarim cho'l hududlarida rotatsion yaylov tizimi o'simlik qoplamasining tiklanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ham aniqlangan [2], yaylov ozuqa resurslarini baholash esa chorvachilik tarmog'ining oziqa ta'minotini belgilashda muhim ahamiyatga ega [3]. Shu bilan birga, chorva yuklamasining ortishi yaylov o'simlik qoplami degradatsiyasini kuchaytirishi va digressiya jarayonlarini yuzaga keltirishi qayd etilgan [4, 5]. Yaylov ekotizimlarida o'simlik qoplami suksessiyasi esa tabiiy sharoitlar hamda antropogen ta'sirlar natijasida shakllanishi ta'kidlanadi [6].


Tadqiqotda statistik ma'lumotlarni hamda ilmiy manbalarni tahlil qilish usullari qo'llanilib, yaylov va pichanzorlar fondi ko'rsatkichlari hamda chorva soni o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi, bu esa Toshkent viloyatida yaylov chorvachiligi rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va yaylov resurslaridan foydalanish darajasini baholash imkonini beradi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari yaylov chorvachiligi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli baholash imkonini berdi. Jadval ma'lumotlari asosida tabiiy, iqtisodiy va tashkiliy omillarning chorvachilik

rivojlanishidagi o'zni tahlil qilindi hamda yaylov va pichanzorlar fondi bilan chorva soni o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. Tahlillar Toshkent viloyatida chorcachilik rivojlanishi asosan tabiiy sharoitlar, yaylov o'simlik qoplami va suv manbalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq chorva yuklamasining ortishi ayrim hududlarda yaylov unumdorligining pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli yaylovlardan oqilona foydalanish, chorva yuklamasini me'yoriylash va ekologik omillarni hisobga olish chorcachilikni barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega [7].

O'zbekistonda yaylov resurslari hududlar bo'yicha notekis taqsimlangan bo'lib, cho'l hududlari chorcachilik uchun asosiy resurs bazasini tashkil etadi. 1991-yilda 22 878,8 ming gektarni tashkil etgan yaylovlar maydoni 2024-yilga kelib 21 163,2 ming gektarga tushgan. Shu davrda yaylov maydoni 1 715,6 ming gektarga yoki 7,5 % ga qisqargan. Ayniqsa, 1991-2010-yillarda kamayish jarayoni izchil davom etib, 2010-yilda eng past ko'rsatkich - 20 643,9 ming gektar qayd etilgan. 2010-yildan keyin yaylov maydonida qisman barqarorlashuv va tiklanish jarayoni kuzatiladi (1-rasm).

Sug'oriladigan yaylovlar maydoni tahlili bu ko'rsatkichning deyarli o'zgarmaganini ko'rsatadi. 1991-yilda 15 ming gektar bo'lgan maydon 2024 yilga kelib 16 ming gektarni tashkil etgan. Bu holat yaylov tizimi asosan tabiiy resurslarga tayanadigan ekstensiv chorcachilik modeliga asoslanganini ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasidagi yaylovlar maydoni (ming gektar) 2025 yil. [8]

Yaylov resurslari hududiy jihatdan yuqori darajada konsentratsiyalangan. Respublika yaylov maydonining asosiy qismi Navoiy viloyati (41,74 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (24,77 %) va Buxoro viloyatiga (12,05 %) to'g'ri keladi. Ushbu hududlar respublika yaylov maydonining qariyb 78 % ini tashkil etadi. Aholi zichligi past va dehqonchilik intensivligi nisbatan kam bo'lgan bu hududlarda chorcachilik ixtisoslashuvi shakllangan. Farg'ona vodiysi hududlarida esa sug'orma dehqonchilik ustuvor bo'lib, yaylov maydonlari juda kichik ulushni tashkil etadi (Andijon - 0,09 %, Farg'ona - 0,04 %, Namangan - 0,75 %).

Toshkent viloyatidagi jami yaylovlar maydoni 2011-2025-yillar davomida deyarli barqaror saqlanganini ko'ramiz. 2011-yilda 433,7 ming gektar bo'lgan jami yaylovlar 2025-yilda 441,3 ming gektarga yetgan, ya'ni o'sish atigi 1,7%ni tashkil etgan. Biroq qishloq xo'jalik korxona va tashkilotlari foydalanadigan yaylovlar maydonida pasayish kuzatiladi. 2020-2022 yillarda 207-208 ming gektar bo'lgan ko'rsatkich 2025 yilda 191,2 ming gektarga tushgan. Ularning jami yaylov maydonidagi ulushi ham 45-46% atrofidan 43% gacha qisqargan. Yaylov

maydoni deyarli o'zgarmagan holda, foydalanish tarkibi o'zgargan, chorva soni o'sgan. Bu yuklama zichligining ortishiga va resurslarga bosim kuchayishiga olib kelgan.

Toshkent viloyatidagi pichanzor va yaylovlar maydoni, chorva mollari soni. 2023-yil.[9]

2-jadval.

Hudud	Pichanzor va yaylovlar (ga)	Yirik shoxli qoramollar (bosh)	Shundan, sigirlar (bosh)	Qo'y va echkilar (bosh)	Otlar (bosh)	Jami chorva mollari (bosh)	Har 100 ga pichanzor va yaylovga to'g'ri keladigan chorva (ming bosh)
Oqqo'rg'on	1419	64507	31159	37360	1992	103859	7,319
Ohangaron	80774	74725	30098	255717	6249	336691	0,417
Bekobod	4879	85929	33703	38450	2701	127080	2,605
Bo'stonliq	42172	116441	31517	194766	10994	322201	0,764
Bo'ka	5510	77320	36933	59628	5152	142100	2,579
Quyichirchiq	203	48280	22575	14794	2018	65092	32,065
Zangiota	278	36590	16410	20257	2566	59413	21,372
Yuqorichirchiq	4207	63405	32919	39896	2550	105851	2,516
Qibray	821	46372	19516	29498	1831	77701	9,464
Parkent	32919	54314	23180	103106	3533	160953	0,489
Pskent	16130	63850	32382	82670	3215	149735	0,928
O'rtachirchiq	549	52483	28603	49203	3384	105070	19,138
Chinoz	1745	54608	26404	34489	2816	91913	5,267
Yangiyo'l	1306	66446	27715	43105	3473	113024	8,654
Toshkent	144	30437	13597	19543	2227	52207	36,255

Jadval ma'lumotlari Toshkent viloyati tumanlarida pichanzor va yaylovlar resurslari hamda chorcachilik yuklamasining keskin hududiy differentsiatsiyasini ko'rsatadi. Yaylov maydoni 144 gektardan 80 774 gektargacha farq qilib, maksimal va minimal qiymatlar o'rtasidagi nisbat 560 baravardan ortiqni tashkil etadi. Bu holat yer resurslarining hududiy jihatdan nomuvofiq taqsimlanganini ko'rsatadi.

Jami chorva mollari soni 52 207 boshdan 336 691 boshgacha o'zgargan bo'lib, mutlaq ko'rsatkichlar hududiy ixtisoslashuvni to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli nisbiy indikator - 100 gektar yaylovga to'g'ri keladigan chorva (ming bosh) asosiy tahlil mezonini sifatida qabul qilindi. Ushbu ko'rsatkich 0,417 ming boshdan 36,255 ming boshgacha farqlanib, variatsiya diapazoni 35,8 ming boshni tashkil etadi.

Viloyat bo'yicha o'rtacha hisoblaganda, har 100 gektar yaylovga to'g'ri keladigan chorva soni bir xil emas, tumanlar o'rtasida katta farq bor. Eng ko'p chorva zichligi Toshkent (36,255), Quyichirchiq (32,065) va Zangiota (21,372) tumanlarida kuzatiladi. Bu shuni anglatadiki, ushbu hududlarda yaylov maydoni nisbatan kam bo'lsa-da, chorva soni ko'p. Ya'ni chorcachilik juda zich joylashgan va yaylovlarga bosim yuqori. Aksincha, Ohangaron (0,417), Parkent (0,489) va Bo'stonliq (0,764) tumanlarida yaylov yuklamasi past. Bu hududlar tog' va tog'oldi relyefiga ega bo'lib, tabiiy yaylov resurslari keng va chorcachilik ekstensiv shaklda rivojlangan. Demak, relyef va yerdan foydalanish tarkibi chorva zichligiga bevosita ta'sir etuvchi omil hisoblanadi.

Tahlil yaylov maydoni va chorva zichligi o'rtasida teskari korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatadi. Yaylov maydoni kamaygan sari 100 gektarga to'g'ri keladigan chorva miqdori ortib boradi. Bu qonuniyat resurs sig'imi va antropogen bosim o'rtasidagi funksional bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Ekologik nuqtai nazardan, 10 ming bosh/100 ga dan yuqori ko'rsatkichlar yuqori degradatsiya xavfini anglatadi. Mazkur mezonga ko'ra, Toshkent, Quyichirchiq va Zangiota tumanlari yuqori xavf zonasiga kiradi. Bu

hududlarda o'simlik qoplaminig kamayishi va tuproq eroziyasi ehtimoli yuqori.

Aholi punktlari va suv manbalariga yaqin joylashgan yaylovlarda chorvaning ortiqcha to'planishi mahalliy darajada antropogen bosimning kuchayishiga olib kelgan. Bunday sharoitda ozuqa qiymati yuqori bo'lgan o'simlik turlari ulushi qisqaradi, ular o'rnini past sifatli o'tlar egallaydi. Chorvaning doimiy harakati va toptab tashlashi natijasida tuproq zichlashadi, namlikni singdirish va havo almashinuvi xususiyatlari yomonlashadi, bu esa o'simliklarning tabiiy tiklanish jarayonini cheklaydi. Natijada yaylov ekotizimida muvozanat buzilib, bioxilma-xillik kamayadi va umumiy mahsuldorlik pasayadi [5]. Chorva yuklamasi yaylovning biologik imkoniyatlaridan yuqori bo'lgan hollarda ozuqa sig'imi bilan amaldagi bosh soni o'rtasidagi mutanosiblik buzilib, ekotizimning o'zini tiklash salohiyati zaiflashadi va degradatsiya jarayonlari yanada chuqurlashadi [5].

Degradatsiya kuchaygan sharoitda o't qoplaminig haqiqiy hosildorligi uning tabiiy biologik salohiyatiga nisbatan 40–50 foizgacha kamayishi mumkin [1, 4]. Bu holat yaylov ozuqa bazasining qisqarishiga, chorva organizmida energiya va protein tanqisligining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada tirik vazn o'sishi sekinlashadi, reproduktiv ko'rsatkichlar yomonlashadi va go'sht ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Ozuqa sifatining pasayishi chorvachilikda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi [1, 4].

Yaylov ozuqa resurslarini baholash natijalari o't qoplaminig hosildorligi bilan chorvaning tirik vazn qo'shishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi [1, 3]. Yaylovlarning ozuqa sig'imini ilmiy asosda aniqlash chorva bosh sonini oqilona rejalashtirish va mavsumiy yaylov taqsimotini samarali tashkil etish imkonini beradi [3]. Chorva yuklamasini (bosh/ga) iqlim sharoiti, yilning namlik darajasi va amaldagi hosildorlik ko'rsatkichlariga mos ravishda me'yorlashtirish degradatsiya jarayonlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega [1, 3, 6]. Shu tariqa, yaylov resurslarini oqilona boshqarish va ularning mahsuldorligini tiklash choralari ekologik barqarorlik bilan birga go'sht

yo'nalishidagi chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini ham ta'minlaydi [1, 4].

Tadqiqot natijalari yaylov chorvachiligining barqaror rivojlanishi tabiiy-ekologik sharoitlar bilan birga boshqaruv tizimining samaradorligiga ham bog'liq ekanini ko'rsatadi. Me'yoriy yondashuvning mavjud emasligi ekotizim muvozanatining buzilishiga va tabiiy tiklanish jarayonlarining sekinlashishiga olib keladi.

Rotatsion yaylov tizimi yaylov resurslaridan barqaror foydalanishni ta'minlovchi samarali texnologiyalardan biri hisoblanadi. U yaylov uchastkalaridan navbat bilan foydalanish orqali o'simlik qoplaminig tiklanishi uchun vaqt yaratadi, tuproq zichlashuvini kamaytiradi va biologik xilma-xillikni saqlashga yordam beradi [2].

Shu bilan birga, ozuqa resurslarini baholash va yaylovning ozuqa sig'imini hisoblash chorva bosh sonini oqilona rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega [1, 3]. Bu usul har bir yaylov uchastkasi uchun haqiqiy hosildorlik darajasini hisobga olish imkonini beradi va yuklamani tabiiy resurs imkoniyatlariga moslashtirishga yordam beradi. Natijada yaylov resurslaridan samarali foydalanish ta'minlanadi va degradatsiya xavfi kamayadi.

Xulosa. Toshkent viloyatida yaylov chorvachiligining rivojlanishi yaylov ekotizimlarining holati, ulardan foydalanish texnologiyasi va qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlariga bevosita bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ortiqcha yuklamani cheklash, rotatsion yaylov tizimini joriy etish hamda ozuqa resurslarini ilmiy asosda baholash tarmoq barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Chorva yuklamasini (bosh/ga) yaylovning haqiqiy hosildorligi va iqlim sharoitiga mos ravishda me'yorlashtirish degradatsiya jarayonlarining oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, yaylov ozuqa sig'imini hisobga olgan holda boshqaruvni tashkil etish resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini uyg'unlashtirish-yaylov mahsuldorligini oshirish, yer resurslarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash hamda go'sht yo'nalishidagi chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini mustahkamlash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Meldebekova N., Shanbayev K., Kushenov K., Seitbattalova A., Kambarbekov E. Use of pastures in beef cattle breeding. // Bulletin of Korkyt Ata Kyzylorda University, 2025, Vol. 73, №2.
2. Nasiyev B., Khiyasov M., Zhanatalapov N., Bekkaliev A. Study of rotational pastures in the semi-desert zone of Western Kazakhstan.
3. Sergaliev N., Akhmedenov K., Makhambetov M., Kuzhamberdieva S. Assessment of forage resources of pastures in the Western region of Kazakhstan. // Bulletin of Korkyt Ata Kyzylorda University, 2024, Vol. 69, № 2.
4. Surxaev G., Surxaeva G. Assessment of digression and the potential of re-establishment of Kizlyar pastures in the Western Near-Caspian region.
5. Seytkarimov A., Baimagambetova Z., Kedelbayev B., Kashkarov A., Sartayev A. Study of the degree of degradation of vegetation cover of rural pasturelands in Turkestan region. // Bulletin of Korkyt Ata Kyzylorda University, 2024, Vol. 71, № 4.
6. Stybayev G.ZH., Serepayev N.A., Muhanov N.K., Baitelenova A.A. Succession of vegetation in pasture ecosystems of the dry-steppe zone of Northern Kazakhstan. // International Research Journal, 2018, №77 (11).
7. Kuvondikov R. A. Egamberdiyeva U.T. Chorvachilikning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'rni. // «Экономика и социум» <https://www.iupr.ru/12-127-2024>
8. O'zbekiston Respublikasining yer fondi. – Toshkent, 2025.
9. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi.